TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

FAYZIYEV SHERZOD DJUNAYDILLOYEVICH

TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHDA KOMPLAYENS-NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026-yil

UDK: 336.713:005.52:005.334(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) in Economic Sciences

Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich
Tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish..... 3

Файзиев Шерзод Джунайдиллоевич
Совершенствование системы комплаенс-контроля в управлении рисками в коммерческих банках..... 31

Fayziev Sherzod Djunaydilloyevich
Improving the compliance control system in risk management within commercial banks…… 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……. 65

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

FAYZIYEV SHERZOD DJUNAYDILLOYEVICH

TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHDA KOMPLAYENS-NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Iqt6498 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ismoilov Alisher Agzamovich** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
	Raxmatov Xasan Utkirovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Alfraganus universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «____»_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «___»_____kuni tarqatildi.

(2026 yil «___»_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda moliyaviy bozorlarning globallashuvi, bank xizmatlarining raqamli platformalarga ko‘chishi, transchegaraviy kapital harakatlari jadallashuvi hamda geosiyosiy beqarorliklarning kuchayishi tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilda global iqtisodiy o‘sish 3,1 foiz, 2027-yilda esa 3,2 foiz atrofida bo‘lishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda Yaqin Sharqdagi urush, geosiyosiy fragmentatsiya, savdo ziddiyatlari, inflyatsion bosim va moliya bozorlaridagi noaniqlik global moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[1]. Bunday sharoitda tijorat banklarida komplayens, sanksion, reputatsion, kiberxavfsizlik va operatsion risklarni integratsiyalashgan holda boshqarish zarurati ortmoqda. Shu bois komplayens-nazorat tizimi banklarning qonunchilik talablariga rioya etishini ta’minlash bilan birga, moliyaviy barqarorligi, reputatsiyasi va raqamli xavfsizligini mustahkamlovchi strategik boshqaruv vositasiga aylanmoqda.

Jahon miqyosida pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, korrupsiya, sanksiyalarni chetlab o‘tish va firibgarlik operatsiyalarining ortib borayotgani komplayens-nazorat tizimini bank risk-menejmentining markaziy elementiga aylantirmoqda. Xalqaro standartlarda komplayens funksiyasi bank risklarini boshqarish tizimining ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi. Basel qo‘mitasi yondashuviga ko‘ra, komplayens riski — bank tomonidan qonunlar, me’yoriy talablar, ichki qoidalar, axloqiy kodekslar va yaxshi amaliyot standartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan huquqiy sanksiya, moliyaviy zarar yoki reputatsion yo‘qotish xavfidir. Shu nuqtai nazardan, komplayens-nazorat tizimi banklarda mustaqil maqomga ega bo‘lishi, biznes bo‘linmalaridan institutsional jihatdan ajratilishi, keng axborot olish huquqi, muntazam monitoring, compliance testing, ichki audit bilan o‘zaro muvofiqlashuv va kuzatuv kengashiga bevosita hisobot berish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, komplayens funksiyasi formal-byurokratik tekshiruv darajasida qolib, bank risklarini erta aniqlash, oldini olish va yumshatish vazifasini to‘liq bajara olmaydi.

O‘zbekiston bank tizimida ham komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. FATF va EAG doirasidagi baholashlarda O‘zbekistonning AML/CFT tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilayotgani, ayrim texnik kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha taraqqiyot mavjudligi qayd etilgan bo‘lsa-da, moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshirish, banklar va fintech subyektlari ustidan nazoratni kuchaytirish, risklarni amaliy boshqarish va shubhali operatsiyalarni aniqlash samaradorligini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, bank xizmatlarining raqamli kanallarga ko‘chishi, masofaviy identifikatsiya, tezkor to‘lovlar, onlayn kreditlash va elektron hamyonlardan foydalanish kengayishi banklarda komplayens risklarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

[1] IMF, 2026-yil aprel oyida e’lon qilingan (WEO) hisoboti bo’yicha global o‘sish va xavflar prognozi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF–5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030 Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1013-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2015-yil 28-iyuldagi 207-son “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida” qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida risklarni boshqarish, bank nazorati, ichki nazorat va komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlar hamda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Bank risklarining nazariy asoslari F.Knight, P.Bernstein, J.Bessis, J.Hull, P.Jorion, M.Crouhy, D.Galai, R.Mark, A.Damodaran, J.Lam[2] kabi olimlar ishlarida yoritilgan bo‘lib, ularda risk, noaniqlik, kredit riski, bozor riski, likvidlik riski, operatsion risk va korporativ risk-menejment mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan. Bank kapitali, moliyaviy barqarorlik va riskka asoslangan nazorat masalalari A.Berger, G.Udell, C.Bouwman, A.Demirgüç-Kunt, H.Huizinga, R.DeYoung, K.Roland, H.Van Greuning va S.Brajovic Bratanovic[3] tadqiqotlarida bank faoliyatining samaradorligi, kapital yetarliligi, aktivlar sifati va risklarni boshqarish tizimi bilan bog‘liq holda tahlil qilingan.

[2] Knight, F.H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Boston: Houghton Mifflin;Bernstein, P.L. (1998). Against the Gods: The Remarkable Story of Risk. New York: John Wiley & Sons;Bessis, J. (2015). Risk Management in Banking. 4th Edition. Wiley;Hull, J.C. (2018). Risk Management and Financial Institutions. 5th Edition. Hoboken: Wiley;Jorion, P. (2007). Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. 3rd Edition. McGraw-Hill;Crouhy, M., Galai, D., & Mark, R. (2014). The Essentials of Risk Management. 2nd Edition. New York: McGraw-Hill;Damodaran, A. (2008). Strategic Risk Taking: A Framework for Risk Management. Wharton School Publishing;Lam, J. (2014). Enterprise Risk Management: From Incentives to Controls. Hoboken: John Wiley & Sons;http://dx.doi.org/10.1002/9781118836477

[3] Berger, A.N., & Udell, G.F. (2006). A more complete conceptual framework for SME finance. Journal of Banking & Finance, 30(11), 2945–2966;Berger, A.N., & Bouwman, C.H. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises? Journal of Financial Economics, 109(1), 146–176. https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2013.02.00;Demirgüç-Kunt, A., & Huizinga, H. (2010). Bank activity and funding strategies. Journal of Financial Economics, 98(3), 626–650;https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2010.06.004;DeYoung, R., & Roland, K.P. (2001). Product mix and earnings volatility. Journal of Financial Intermediation, 10(1), 54–84. https://doi.org/10.1006/jfin.2000.0305;Van Greuning, H., & Bratanovic, S.B. (2003). Analyzing and Managing Banking Risk. 2nd Edition. Washington, D.C.: The World Bank;Brajovic Bratanovic, S., & Van Greuning, H. (2020). Analyzing Banking Risk: A Framework for Assessing Corporate Governance and Risk Management. 4th Edition. Washington, D.C.: World Bank. http://hdl.handle.net/10986/33860

Tijorat banklarini tartibga solish, prudensial nazorat va komplayens funksiyasining institutsional asoslari K.Alexander, A.Dill, D.Arner, J.Barberis, R.Buckley, A.Ahmad, C.Ng, L.McManus, B.Hoffman, J.Okeniyi, S.Samuel[4] kabi olimlar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ayniqsa, D.Arner, J.Barberis va R.Buckley ishlarida FinTech, RegTech va raqamli moliyaviy nazoratning shakllanishi bank komplayens tizimining yangi bosqichi sifatida talqin etiladi.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan ham bank risklari, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik va komplayens-nazorat masalalari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, I.Lebedev, G.Kroxicheva, E.Arxipov, K.Zensova, Ye.Novikova, M.Kusiy, Ye.Kuznetsova, D.Laptev, V.Gaponenko, A.Besialko, A.Vlaskov, N.Kolesnichenko va M.Gilfanov ishlarida iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar, moliyaviy xavfsizlikni baholash, riskli vaziyatlarni identifikatsiya qilish va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqarorligini ta’minlash usullari tadqiq etilgan. Bank risklarini boshqarish masalalari O.Lavrushin, N.Valenseva, A.Belyakov, G.Korobova, S.Kabushkin, V.Gamza, I.Tkachuk va I.Jilkin[5] ilmiy ishlarida kredit, likvidlik, operatsion va bozor

---

[4] Alexander, K. (2019). Principles of Banking Regulation. Cambridge: Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108341141;Dill, A. (2020). Bank Regulation, Risk Management, and Compliance: Theory, Practice, and Key Problem Areas. Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429351167;Ahmad, S., Ng, C., & McManus, L. (2014). Enterprise Risk Management (ERM) Implementation: Some Empirical Evidence from Large Australian Companies. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 164, 541–547. Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=2932715;Arner, D.W., Barberis, J.N., & Buckley, R.P. (2015). The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? Georgetown Journal of International Law, 47, 1271–1319;Arner, D.W., Barberis, J., & Buckley, R.P. (2017). FinTech, RegTech, and the Reconceptualization of Financial Regulation. Northwestern Journal of International Law & Business, 37, 371. https://scholarlycommons.law.northwestern.edu/njilb/vol37/iss3/2; Hoffman, B.N., Okeniyi, J., & Samuel, S.E. (2024). Antecedents of Compliance with Anti-Money Laundering Regulations in the Banking Sector of Ghana. Journal of Risk and Financial Management, 17(8), 373. https://doi.org/10.3390/jrfm17080373;De Goede, M. (2010). Financial security. In The Routledge Handbook of New Security Studies (pp. 100–109). Routledge;Amicelle, A. (2023). When finance met security: Back to the War on Drugs and the Problem of Dirty Money. Finance and Society. https://www.cambridge.org/core/journals/finance-and-society/article/when-finance-met-security-back-to-the-war-on-drugs-and-the-problem-of-dirty-money/52B7D5AC764931B7A8FF68A6587893C9; Amoore, L.A. (2011). Data Derivatives: On the Emergence of a Security Risk Calculus for our Times. Theory, Culture and Society, 28(6), 24–43. https://doi.org/10.1177/0263276411417430;Langley, P. (2013). Toxic assets, turbulence and biopolitical security: Governing the crisis of global financial circulation. Security Dialogue, 44(2), 111–126. http://www.jstor.org/stable/26302222

[5] Лебедев, И. (2008). Методы минимизации финансовых рисков при обеспечении экономической безопасности предприятий металлургии. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва: Финансовая академия при Правительстве Российской Федерации.;Крохичева, Г., Архипов, Э., Зенцова, К., & Новикова, Е. (2016). Финансовая безопасность в системе экономической безопасности. КАНТ, №3(20), 107–111.;Крохичева, Г.Е., Архипов, Э.Л., Баздикян, М.Ю., & Истомин, А.В. (2017). Идентификация рисковых ситуаций в системе экономической безопасности. Интернет-журнал «Науковедение», 9(4).;Кусый, М.Ю. (2013). Финансовые риски и финансовая безопасность предприятия. Науковий вісник: Фінанси, банки, інвестиції, №4, 35–40.;Кузнецова, Е., & Лаптев, Д. (2011). Финансовая безопасность предприятия как предмет финансового планирования. Вестник Московского университета МВД России, №5, 52–57.;Гапоненко, В.Ф., Бесиалько, А.А., & Власков, А.С. (2007). Экономическая безопасность предприятий. Подходы и принципы. Москва: Ось-89.;Колесниченко, Н.А., & Гильфанов, М.Т. (2013). Методические аспекты оценки и обеспечения экономической безопасности предприятия. Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, №11(127), 56–62.;Банковские риски: учебник. (2016). Под ред. О.И. Лаврушина, Н.И. Валенцевой. 3-е изд., перераб. и доп. Москва: КНОРУС;Банковские риски: учебное пособие. (2007). Под ред. О.И. Лаврушина, Н.И. Валенцевой. Москва: КНОРУС;Беляков, А.В. (2003). Банковские риски: Проблемы учета, управления и регулирования. Москва: БДЦ-пресс.;Коробова, Г.Г. (2012). Банковское дело: учебник. Москва: Экономистъ.;Кабушкин, С.Н. (2002). Управление банковским риском: учебное пособие. Минск: Новое знание.;Гамза, В.А., Ткачук, И.Б., & Жилкин, И.М. (2025). Безопасность банковской деятельности: учебник для вузов. 6-е изд., перераб. и доп. Москва: Юрайт. https://urait.ru/bcode/560284

risklarini aniqlash hamda ularni boshqarish mexanizmlari bilan bog‘liq holda yoritilgan. Komplayens-nazoratning amaliy jihatlari V.Abramov va V.Cherepanova asarlarida tashkilot ichki nazorati, korrupsiyaga qarshi nazorat va me’yoriy talablarga rioya qilish mexanizmlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan bank ishi, kredit, moliyaviy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, ichki nazorat hamda risklarni boshqarishning ayrim nazariy-amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Abdullayeva asarlarida pul, kredit va banklar nazariyasi, kredit skoringining bank faoliyatidagi ahamiyati; X.Abulqosimov va A.Ishmuhammedov ishlarida iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslari; A.Burxanov tadqiqotlarida moliyaviy xavfsizlikning mohiyati va baholash masalalari; I.Abdukarimov, M.Pardayev va B.Isroilov ishlarida korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili; G.Alimov va B.Isroilov tadqiqotlarida yashirin iqtisodiyot, korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashish masalalari yoritilgan. Shuningdek, K.Ahrorov tomonidan komplayens nazorati korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan nazorat vositasi sifatida, M.Jumanazarov va K.Karimov[6] tomonidan esa banklarda risklarni nazorat qilish va moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida risklarni boshqarish, moliyaviy xavfsizlik, bank nazorati, ichki nazorat, AML/CFT, kredit riski, operatsion risk va komplayensga oid masalalar alohida yo‘nalishlar sifatida yetarli darajada tadqiq etilgan. Biroq tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini yagona metodologik mexanizm sifatida shakllantirish, komplayens risklarini baholashning chegaraviy mezonlarini ishlab chiqish, AML/CFT, KYC/KYB, sanksion monitoring, kredit oldi komplayens, manfaatlar to‘qnashuvi, benefisiar mulkdorlikni aniqlash va raqamli tranzaksiyalar monitoringini integratsiyalashgan risk-menejment tizimiga bog‘lash masalalari yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur ilmiy ish Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “F-1-68-son: “Transaksiyalar va transaksiya xarajatlarini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi (2012-2016 yy.) fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

[6] Abdullayeva, Sh.Z. (2000). Pul, kredit va banklar. Toshkent: Moliya.;Abdullayeva, Sh.Z. (2016). Kredit skoring: banklar faoliyatidagi ahamiyatli uslub. Bozor, pul va kredit, №12.;Абулқосимов, Х.П. (2006). Иқтисодий хавфсизлик. Тошкент: Академия.;Бурханов, А.У. (2019). Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Тошкент: Иқтисодиёт.;Абдукаримов, И.Т., Пардаев, М., & Исроилов, Б.И. (2003). Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили. Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси.;Алимов, Г.А., & Исраилов, Б.И. (2020). Теневая экономика, коррупция, взяточничество: уголовно-правовая оценка. Монография. Тошкент: Издательский дом инновационного развития.;Ishmuhammedov, A.E. (2004). Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDIU.;D.I. Istamov, Granatkin, Y.A., Muhammadov, M.M., & Xodjayev, E.N. (1995). Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat sirlarini himoya qilish. Samarqand.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimidan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarida risk-menejment tushunchasi, uning iqtisodiy mazmuni, turlari va bank faoliyatidagi ahamiyatini nazariy jihatdan tadqiq etish;

komplayens-nazorat tizimining mohiyati, tarkibiy elementlari, funksional vazifalari hamda tijorat banklari faoliyatidagi o‘rnini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash;

tijorat banklarida risklarni boshqarish va komplayens-nazorat tizimlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish bo‘yicha xorijiy va milliy yondashuvlarni o‘rganish;

O‘zbekiston tijorat banklarining rivojlanish dinamikasini asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish;

O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy samaradorligi, barqarorligi va risk darajasini baholash;

tijorat banklarida moliyaviy risklarga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida aniqlash va ularning ta’sir darajasini baholash;

O‘zbekiston tijorat banklarida komplayens tizimining shakllanish holati va uning risklarni boshqarishdagi samaradorligini tahlil qilish;

“Asia Alliance Bank” ATB va “Aloqabank” ATB misolida moliyaviy xavfsizligini ta’minlash muammolarтi aniqlash va ularning echimlarini taklif qilish;

tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimidan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy hamda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, iqtisodiy, statistik, taqqoslash, omilli va tarkibiy tahlil, statistik guruhlash, tahlil va sintez, ekonometrik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi” tushunchasi bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari, regulyator talablari, xalqaro standartlar, ichki me’yoriy hujjatlar va korporativ etika qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda minimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ichki nazorat va risklarni boshqarish mexanizmi nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

tijorat banklarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi komplayens-nazorat tizimini integrallashgan boshqaruv mexanizmi asosida tashkil etish takomillashtirilib, unda AML/CFT, “Know Your Customer” (KYC),

sanksion monitoring va operatsion risk indikatorlarini yagona raqamli platforma orqali nazorat qilish taklif etilgan;

tijorat banklarida komplayens-risklarni baholash usuli takomillashtirilib, unda komplayens buzilishlari ehtimoli va ularning moliyaviy ta’sirini integral indeks asosida aniqlashning $0 \le KR < 0{,}30$ – “past”, $0{,}30 \le KR < 0{,}60$ – “o‘rtacha”, $0{,}60 \le KR < 0{,}80$ – “yuqori” hamda $0{,}80 \le KR \le 1{,}00$ – “juda yuqori” darajalari asosida takomillashtirish chegaralarini baholash taklif etilgan;

AT “Aloqabank”ning risk qiymatining 2030-yilgacha bosqichma-bosqich prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida komplayens-nazorat faoliyatini risk-menejment tizimi bilan uzviy bog‘lash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tijorat banklarida mijozlar va bank operatsiyalari bo‘yicha komplayens-nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, yuqori riskli operatsiyalarni saralash, shubhali tranzaksiyalarni tezkor aniqlash va mas’ul bo‘linmalarga ogohlantirish signallarini yuborish bo‘yicha amaliy mexanizm ishlab chiqilgan;

bank amaliyotida komplayens-risklar holatini davriy baholash, filiallar, mijozlar guruhi, mahsulot turlari va operatsion jarayonlar kesimida risk darajasini solishtirish hamda riskga mos boshqaruv choralarini belgilash imkonini beruvchi amaliy baholash tartibi ishlab chiqilgan;

AT “Aloqabank” ma’lumotlari asosida risk qiymatining istiqboldagi o‘zgarishlarini baholash natijalari bankda komplayens-nazorat resurslarini rejalashtirish, ichki audit tekshiruvlarini riskga yo‘naltirilgan asosda tashkil etish, yuqori riskli yo‘nalishlarga ustuvor e’tibor qaratish hamda 2030 yilgacha bo‘lgan davrda risklarni boshqarish strategiyasini shakllantirishda amaliy foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy yondashuvlar, ilmiy xulosalar va takliflardan tijorat banklarida risklarni boshqarish jarayonida komplayens-nazorat tizimining iqtisodiy mazmuni, tashkiliy mexanizmi va baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslarini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotda taklif etilgan yondashuvlar komplayens-risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish va minimallashtirishning zamonaviy usullarini rivojlantirish, banklarda AML/CFT, KYC, sanksion monitoring hamda operatsion risklarni integratsiyalashgan holda boshqarish bo‘yicha ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish, risklarni boshqarish samaradorligini oshirish, ichki nazorat va ichki audit faoliyatini riskga yo‘naltirilgan asosda tashkil etish, shuningdek, mijozlar va bank operatsiyalari bo‘yicha komplayens-risklarni erta aniqlash hamda ularning salbiy moliyaviy va reputatsion oqibatlarini kamaytirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Mazkur natijalar banklarda komplayens jarayonlarini raqamlashtirish, yuqori riskli operatsiyalarni monitoring qilish, regulyator talablariga rioya etilishini ta’minlash hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida belgilangan bank-moliya tizimini isloh qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiyotda shaffoflikni oshirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi” tushunchasi bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari, regulyator talablari, xalqaro standartlar, ichki me’yoriy hujjatlar va korporativ etika qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda minimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ichki nazorat va risklarni boshqarish mexanizmi nuqtai nazaridan takomillashtirish taklifi o‘quv amaliyotiga joriy etilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 23.02.2026 y., №55-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda “tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi” tushunchasi kengayishiga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda tijorat banklarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi komplayens-nazorat tizimini integrallashgan boshqaruv mexanizmi asosida tashkil etish takomillashtirilib, unda AML/CFT, “Know Your Customer” (KYC), sanksion monitoring va operatsion risk indikatorlarini yagona raqamli platforma orqali nazorat qilish, shubhali operatsiyalarni ichki tartibga muvofiq CB/AMLOga xabar berish, komplayens-xatarlarni identifikatsiya qilish, baholash, risk kamaytirish choralari ishlab chiqish tartibi “Asia Alliance Bank” ATB va AT “Aloqabank”ning faoliyatiga joriy etilgan. («Aloqabank» 25.05.2026 y., №25-04/4193-son, «Asia Alliance Bank» 25.05.2026 y., №3086-05-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida AT “Aloqabank”ning moliyaviy hisobotlari tahliliga ko‘ra, mazkur tizimni joriy etish natijasida bankning foizli daromadlar hajmi 2024-yilda 2 249,4 mlrd so‘mga yetib, 2023-yilning mos davriga nisbatan (1 862,0 mlrd so‘m) 20,8 foizlik, 2025-yilda 3 230,8 mlrd so‘mga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan (2 249,4 mlrd so‘m) 43,6 foizlik o‘sishga erishilgan. Shuningdek, «Asia Alliance Bank» ATB joriy etilishi risklarni erta aniqlash, shubhali operatsiyalarni tezkor monitoring qilish va ichki nazorat samaradorligini oshirish imkonini bergan;

tijorat banklarida komplayens-risklarni baholash usuli takomillashtirilib, unda komplayens buzilishlari ehtimoli va ularning moliyaviy ta’sirini integral indeks asosida aniqlashning $0 \le KR < 0,30$ – “past”, $0,30 \le KR < 0,60$ – “o‘rtacha”, $0,60 \le KR < 0,80$ – “yuqori” hamda $0,80 \le KR \le 1,00$ – “juda yuqori” diapazonini belgilash asosida takomillashtirish chegaralarini baholash taklifidan «Asia Alliance Bank» ATB hamda AT “Aloqabank”ning faoliyatida foydalanilgan. («Asia Alliance Bank» 25.05.2026 y., №3086-05-son; «Aloqabank» 25.05.2026 y., №25-04/4193-sonli ma’lumotnomalari). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida «Asia Alliance Bank» aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida komplayens-risklar baholanib, moliyaviy barqarorligiga xavf soluvchi ichki tahdidlar aniqlangan, ularni bartaraf etish bo‘yicha komplayens-nazorat bo‘limiga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni yaratilgan. Sof foizli daromadlar esa 375,5 mlrd so‘mdan 466,8 mlrd so‘mga yetib, 24,3 foizga ko‘paygan. Bu esa riskli operatsiyalarni erta aniqlash va nazorat qilish orqali aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirgan. Shuningdek, ilmiy taklifning «Aloqabank» faoliyatida amaliyotga joriy etilishi natijasida, kredit risklari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar uchun shakllantirilgan rezervlardan keyingi sof foizli daromad 0,7 mlrd so‘mdan 50,4 mlrd so‘mga yetgani bankda risklarni boshqarish sifati yaxshilanganini anglatgan;

ARIMA modeli “Asia Alliance Bank” va “Aloqabank” aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatiga joriy etilgan, banklar risk qiymatining 2030-yilgacha prognozi ishlab chiqilgan, mazkur ilmiy taklif aksiyadorlik tijorat banklarining 2027-2029-yillar uchun rivojlanish strategiyasi loyihasida inobatga olingan («Asia Alliance Bank» 25.05.2026 y., №3086-05-son; «Aloqabank» 25.05.2026 y., №25-04/4193-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiyadorlik tijorat banklarining 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi loyihasida prognoz ko‘rsatkichlari inobatga olinib, banklarda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish va resurslarni taqsimlash sifatining oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g‘oyasi va natijalari ma’ruzalar shaklida 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimidan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari»** deb nomlanib, unda tijorat banklarida risk-menejment tizimining nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Mazkur bobda risk tushunchasining bank faoliyatidagi o‘rni, kredit, likvidlilik, bozor, operatsion, valyuta va komplayens risklari kabi asosiy turlari hamda ularning bank faoliyati barqarorligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, komplayens-nazorat tizimining mazmuni, vazifalari va banklarda qonunchilik talablariga rioya etilishini ta’minlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Xususan, jinoiy faoliyatdan olingan pul mablag‘larini legallashtirishga qarshi kurashish, korrupsiyaga qarshi siyosat, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ichki nazorat mexanizmlarining komplayens tizimidagi o‘rni tahlil qilingan.

Bobda risklarni boshqarish va komplayens-nazorat tizimlarining o‘zaro integratsiyalashgan modellari o‘rganilib, xalqaro bank amaliyotida qo‘llanilayotgan uch himoya chizig‘i (Three Lines Model), Basel qo‘mitasi tavsiyalari hamda korporativ boshqaruv tamoyillari asosida shakllangan yondashuvlar umumlashtirilgan. Natijada tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda komplayens-nazorat tizimini integratsiyalashgan holda qo‘llashning nazariy-uslubiy asoslari shakllantirilgan.

Risk tushunchasining nazariy asoslari iqtisodiy fan doirasidan tashqariga chiqib, noaniqlikni anglash va boshqarish bilan bog‘liq falsafiy qarashlarga tayanadi.

P. Bernstein riskni insoniyatning kelajakdagi noaniqliklarni o‘lchash va nazorat qilishga bo‘lgan intilishi natijasida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida talqin qiladi.

A. Damodaran esa riskni faqat salbiy oqibatlar ehtimoli emas, balki qo‘shimcha daromad olish imkoniyati sifatida ham baholab, uni optimal darajada qabul qilish va boshqarish zarurligini asoslaydi.

Mazkur yondashuvlar riskning “tahdid” va “imkoniyat” sifatidagi ikki tomonlama mohiyatini namoyon etib, zamonaviy bank risk-menejmenti metodologiyasining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Moliyaviy risklarni kompleks boshqarish konsepsiyasining rivojlanishida P. Jorionning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, kredit, bozor va operatsion risklar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida baholanishi lozim.

P.Jorion tomonidan ishlab chiqilgan Value-at-Risk (VaR) metodologiyasi bank portfeli risklarini ehtimollik asosida baholash imkonini berib, xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston ilmiy maktabi vakillari Sh. Normatov va N.G‘.Xidiyev risklarni baholashda ichki va tashqi omillarni kompleks tahlil qilish hamda tizimli yondashuvdan foydalanish zarurligini asoslab berganlar.

A.A.Mamatov esa tijorat banki riskini bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida zarar ko‘rish yoki rejalashtirilgan moliyaviy natijalarga erishmaslik ehtimolini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya sifatida ta’riflaydi.

1-jadval

Tijorat banki riski tushunchasiga olimlarning ta’riflari[7]

Muallif	Ta’rif mazmuni	Asosiy belgilar
Frank Hyneman Knight (1921)	Risk - ehtimollik taqsimoti orqali miqdoriy baholash mumkin bo‘lgan noaniqlik shakli	O‘lchamlilik, ehtimollik
Philippe Jorion (2007)	Bank riski - moliyaviy yo‘qotish ehtimoli bo‘lib, kredit, bozor va operatsion tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi	Moliyaviy zarar, tarkiblilik
A.Mamatov (2022)	Tijorat banki riski - bank operatsiyalarida zarar ko‘rish yoki rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga erishmaslik ehtimoli	Zarar, reja va natija tafovuti
Sh.Normatov (2014)	Bank riski - ichki va tashqi omillar ta’sirida kapital va daromadlarning kamayish ehtimolini ifodalovchi holat	Omillar ta’siri, kapital va daromad
Hennie van Greuning, S.B.Bratanovic (2004)	Bank riski - kutilmagan omillar natijasida aktivlar qiymati pasayishi yoki zarar yuzaga kelishi ehtimoli	Kutilmaganlik, aktivlar qiymati

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, risk tushunchasiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Biroq aksariyat ta’riflarda riskning asosiy belgisi sifatida noaniqlik, ehtimollik hamda moliyaviy yo‘qotish ehtimoli e’tirof etiladi. Shu sababli tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish va komplayens-nazorat tizimini rivojlantirish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.


Mazkur sxematik yondashuvdan kelib chiqib, tijorat banklari risklari tarkibiy jihatdan uch asosiy blokka - sof, moliyaviy va investitsion risklarga ajratilgan holda tizimlashtiriladi.

Bunda sof risklar tarkibida tabiiy-resurs, ekologik, transport, mulkiy hamda ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq tavakkalchiliklar aks ettiriladi.

Shu bilan birga, moliyaviy risklar bloki ichki (chegara ichidagi) va tashqi (chegara) risklar kesimida guruhlanib, bank faoliyatining ichki operatsion muhitiga hamda tashqi makroiqtisodiy omillarga bog‘liq risklarni ajratish imkonini beradi.

Investitsion risklar blokida esa foydaning kamayishi, daromadlilik darajasining pasayishi hamda turli ta’sir mexanizmlariga ega bo‘lgan tavakkalchiliklar, shuningdek, kredit, birja va ssuda operatsiyalariga xos risklar alohida ajratilgan holda ifodalanadi. Risk turlari tuzilmaviy sxemasi algoritmi **1-rasmda** aks ettirilgan.

[7] Muallif tomonidan adabiyotlar asosida tuzilgan.



1-rasm. Tijorat banklarida risk turlari[8]


Tadqiqot doirasida xalqaro standartlar hamda milliy ilmiy yondashuvlar sintezi asosida ishlab chiqilgan funksional-tuzilmaviy model orqali tijorat banklari risklarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning moliyaviy va nomoliyaviy tarkibiy qismlari hamda boshqaruv subyektlari bilan o‘zaro aloqadorligi kompleks tarzda aks ettiriladi.

Mazkur funksional-tuzilmaviy model tijorat banklari risklari tizimini o‘zaro bog‘liq uch asosiy blok - moliyaviy, nomoliyaviy hamda tizimli risklar kesimida kompleks tarzda tavsiflash imkonini beradi. Sxemaning yuqori qatlamida bank menejmentining bevosita boshqaruv obyekti sifatida namoyon bo‘ladigan moliyaviy risklar, ya’ni kreditlash jarayonlari, moliya bozorlaridagi kon’yunkturaviy o‘zgarishlar hamda likvidlilik bilan bog‘liq tavakkalchiliklar xalqaro va milliy metodologiyalar sintezi asosida tizimlashtirilgan.

Komplayens-nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishi uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning aniq konseptualizatsiyasini taqozo etadi. Mazkur elementlarni tizimli tahlil qilish asosida ularni uchta asosiy iyerarxik qatlamga - tashqi determinantlar, tizim yadrosi va natijaviy ko‘rsatkichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy bank amaliyotida keng tatbiq etilayotgan hamda Bazel qo‘mitasi tavsiyalari va Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan «uch mudofaa liniyasi» (*three lines of defence*) konsepsiyasi bank risk-menejmentining fundamental asosi hisoblanadi. Mazkur model bank tizimidagi mas’uliyat qatlamlarini aniq chegaralash barobarida, har bir tarkibiy darajaning funksional vakolatlarini ierarxik tartibga soladi. Ushbu modelning tuzilmaviy algoritmi 2-rasmda aks ettirilgan.

[8] Mamatov, A.A. (2022). Tijorat banklarining faoliyatidagi risklar, uning mohiyati va turlari. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(11), 37–41. https://doi.org/10.5281/zenodo.7238093



2-rasm. Tijorat banklarida risklarning funksional-tuzilmaviy tasnifi[9]

Risklarni tasniflashga oid ilmiy qarashlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, universal va barcha sharoitlarga mos keluvchi yagona tasnifiy model mavjud emas, chunki tijorat banklari risklarining tarkibi, darajasi va namoyon bo‘lish shakllari milliy moliya tizimining rivojlanish bosqichi, banklarning biznes-modeli hamda regulyativ muhit xususiyatlariga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois, mazkur dissertatsiyada risklarni boshqarish jarayonida komplaens-nazorat tizimining rolini tahlil qilishda xalqaro standartlar, xususan, Bazel metodologiyasi hamda milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar uyg‘unligiga asoslangan yondashuv metodologik poydevor sifatida qabul qilinadi.

Bizningcha, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi – bu bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari, regulyator talablari, xalqaro standartlar, ichki me’yoriy hujjatlar va korporativ etika qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda minimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ichki nazorat va risklarni boshqarish mexanizmidir.

Xulosa tariqasida ta’kidlash joizki, tijorat banklari faoliyatida risk tushunchasining mazmun-mohiyatini hamda ularning turlarini chuqur nazariy anglash komplayens-nazorat tizimini samarali tashkil etishning zaruriy sharti hisoblanadi, chunki komplayens funksiyasi tor ma’noda faqat qonunchilik

[9] Muallif tomonidan BCBS (Basel Committee on Banking Supervision) (2006), Mamatov (2022), Karimov (2025) asosida tuzilgan.

talablariga rioya etilishini ta’minlash bilan cheklanmay, balki yuridik, operatsion va reputatsion risklarning oldini olish orqali bank faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu asosda, keyingi paragraflarda tijorat banklarida risklarni boshqarishning nazariy modellari hamda komplayens-nazorat tizimining institutsional asoslari izchil ravishda tahlil etiladi.

Komplayens-nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishi uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning aniq konseptualizatsiyasini taqozo etadi. Mazkur elementlarni tizimli tahlil qilish asosida ularni uchta asosiy iyerarxik qatlamga - tashqi determinantlar, tizim yadrosi va natijaviy ko‘rsatkichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

<table>
<tr><th>TASHQI OMILLAR</th><th>TIZIM YADROSI</th><th>CHIQISH NATIJALARI</th></tr>
<tr><td>Qonunchilik talablari va milliy hamda xalqaro normalar

Regulyativ talablar va Markaziy bank ko‘rsatmalari

Xalqaro standartlar (Basel III, FATF tavsiyalari va boshqalar)

Korporativ etik me’yorlar va axloqiy kodekslar</td><td>Komplayens xizmati (institutsional mustaqillik va aniq vakolatlar bilan ta’minlangan bo‘linma)
Risklarni baholash tizimi (miqdoriy va sifat tahlil usullari majmui)
Doimiy monitoring mexanizmi (operatsion faoliyat ustidan uzluksiz nazorat)
Xodimlarni tayyorlash tizimi (muntazam treninglar va kasbiy sertifikatlash)</td><td>Rahbariyat va nazorat organlariga taqdim etiladigan tizimli hisobotlar

Ichki va tashqi audit natijalari

Tashkilotda etik madaniyat va institutsional xulq-atvorning shakllanishi

Bankning obro‘-e’tiborining mustahkamlanishi hamda mijozlar va investorlar ishonchining ortishi</td></tr>
<tr><td colspan="3">↺ Qayta aloqa va tizimni takomillashtirish sikli</td></tr>
</table>

3-rasm. Komplayens-nazorat tizimining tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi arxitekturasi[10]

3-rasmda aks ettirilganidek, tashqi omillar qatlami komplayens tizimining dinamik muhitini belgilaydi. Tizim yadrosi esa to‘rtta fundamental funksional elementni - mustaqil vakolatlarga ega komplayens xizmati, risklarni baholash metodologiyasi, uzluksiz monitoring mexanizmi va xodimlarni tizimli o‘qitish dasturlarini o‘zida birlashtiradi. Ta’kidlash joizki, ushbu qatlamlar o‘rtasida chiziqli emas, balki qayta aloqa tamoyili (feedback loop) asosidagi o‘z-o‘zini takomillashtirish sikli mavjud bo‘lib, u yangi yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga operativ munosabat bildirish imkonini beradi.

Zamonaviy bank amaliyotida keng tatbiq etilayotgan hamda Bazel qo‘mitasi tavsiyalari va Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan «uch mudofaa liniyasi» (three lines of defence) konsepsiyasi bank risk-menejmentining fundamental asosi hisoblanadi.

Mazkur model bank tizimidagi mas’uliyat qatlamlarini aniq chegaralash barobarida, har bir tarkibiy darajaning funksional vakolatlarini ierarxik tartibga soladi. Ushbu modelning tuzilmaviy algoritmi 4-rasmda aks ettirilgan.

Sxema tahlili shuni ko‘rsatadiki, modelning vertikal ierarxiyasi tashqi regulyatorlardan boshlanib, bankning oliy boshqaruv organlariga qadar cho‘ziladi.

[10] BCBS (2005), Mamanov (2024), Lam (2014) asosida muallif tomonidan tuzilgan

Birinchi mudofaa chizig‘i - bevosita operatsion bo‘linmalar (kreditlash, kassa amaliyotlari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, IT-departamenti) zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, ular biznes-jarayonlar kontekstida birlamchi nazorat subyektlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, ushbu bosqich eng ko‘p resurs talab qiluvchi, biroq eng muhim himoya qatlami hisoblanadi, zero barcha asosiy bank operatsiyalari aynan shu bo‘g‘inda amalga oshiriladi.

Ikkinchi mudofaa chizig‘i - komplayens va risk-menejment xizmatlari nazorat metodologiyasini shakllantirish, AML/KYC protokollarini yuritish va regulyativ hisobotlarni tayyorlash uchun mas’ul hisoblanadi.

Uchinchi mudofaa chizig‘i vazifasini bajaruvchi ichki audit xizmati esa birinchi ikki liniyadan mutlaq mustaqil ravishda obyektiv tekshiruvlarni amalga oshiradi va hisobdorlikni bevosita Kuzatuv kengashiga ta’minlaydi.



4-rasm. Bank faoliyatida komplayens-nazoratning «uch mudofaa liniyasi» modeli[11]

Muallif fikricha, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi - bu bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari, regulyator talablari, xalqaro standartlar, ichki me’yoriy hujjatlar va korporativ etika qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda minimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ichki nazorat va risklarni boshqarish mexanizmidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«O‘zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimidan foydalanish holati tahlili»** deb nomlanib, unda mamlakat bank tizimining rivojlanish tendensiyalari, moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda risk darajalarining amaldagi holati chuqur tahlil qilingan.

Bobda, O‘zbekiston tijorat banklarining aktivlari, kapitali, kredit portfeli, depozit bazasi va moliyaviy natijalari dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, banklarning rentabellik, likvidlilik, kapital yetarliligi va muammoli kreditlar darajasi kabi ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ularning moliyaviy

[11] BCBS (2005), Orient Finans XATB (2022), Mamanov (2020) asosida muallif tomonidan tuzilgan

samaradorligi va risk holati o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Komplayens nazorati faoliyatining amaliy holati o‘rganilib, ichki nazorat tizimlari, risklarni monitoring qilish mexanizmlari va amaldagi normativ-huquqiy talablarning bajarilish darajasi baholangan. Bundan tashqari, tijorat banklarida moliyaviy risklarga ta’sir etuvchi omillar ekonometrik usullar asosida tadqiq qilinib, risklarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy ichki va tashqi determinantlar aniqlangan. Olingan natijalar asosida bank tizimida komplayens-nazorat faoliyatining samaradorligini oshirish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bank darajasidagi mikro ma’lumotlar (bank-level panel data) ochiq manbalardan to‘liq hajmda mavjud emas — tahlil asosan sektor darajasidagi agregat ko‘rsatkichlar doirasida olib borildi. 2020–2022 yillar bo‘yicha ba’zi ko‘rsatkichlar interpolatsiya asosida hisoblangan (jadvalda ~ belgisi bilan ko‘rsatilgan). Bundan tashqari, NPL hisobi metodologiyasidagi o‘zgarishlar — 2021 yilda Bazel III ga to‘liq o‘tish —qatorning bir xilligini ta’minlashni qiyinlashtiradi.

O‘zbekiston bank tizimi 2020–2024 yillar davomida miqdoriy va sifat jihatdan sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi (2-jadval). Tijorat banklari soni 31 tadan 36 taga oshdi — biroq bu o‘sishning asosiy mazmuni raqamning o‘zidan muhimroq: davlat ulushidagi banklar soni 13 tadan 9 taga kamaydi, xususiy va xorijiy banklar esa 18 tadan 27 taga ko‘paydi.

2-jadval.

O‘zbekiston tijorat bank tizimining tarkibiy ko‘rsatkichlari (2020–2024)[12]

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Jami tijorat banklari soni	31	33	34	35	36	36
Davlat ulushidagi banklar	13	12	11	10	9	9
Ko‘rsatkich	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025***
Xususiy va xorijiy banklar	18	21	23	25	27	27
Davlat banklari aktiv ulushi (%)	85.0	81.5	78.2	67.0	65.8	61.1
Plastik kartalar (mln dona)	20.4	25.7	27.1	34.2	46.2	62.1
Masofaviy bank xizm. foydalanuvchilari (mln)	19.8	27.3	36.4	44.1	52.8	60.3
Faoliyat ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari *(mikromoliya va lombardlar)*	130	160	185	204	187	221

Eng muhim tarkibiy o‘zgarish — davlat banklarining aktivlardagi ulushining 85 foizdan (2020) 61,1 foizga (2025) pasayishidir. Bu 24 foizlik pasayish PF-5992 strategiyasi doirasida amalga oshirilgan xususiylashtirish islohotlarining - jumladan, Ipoteka bank va O‘zagroeksportbankda davlat ulushining xorijiy investorlarga sotilishining - birinchi natijalarini aks ettiradi. Biroq, maqsadli ko‘rsatkich (2026

[12] Manba: O'zR Markaziy banki yillik hisobotlari 2020–2025 (https://cbu.uz/uz/about/reports/annual/); IMF/World Bank FSAP 2025 (https://documents1.worldbank.org/curated/en/099081925064533229/pdf/P506984-16bbc722-0060-46ac-a68c-75e2fe5ab247.pdf); O'zbekiston Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, bank reytingi, 2024 I chorak (https://uba.uz/uz/press_center/news/cbu/o-zbekiston-banklarining-2024-yil-i-chorak-reytingi/).

yilga kelib 60 foiz) hali bajarilmagan, chunki 2025 yil yakunlari bo‘yicha davlat ulushi 61,1 foiz darajasida saqlanib qolmoqda.

Kredit konsentratsiyasi muammosi qisman yaxshilansa ham, davlat banklarining kredit/depozit nisbati (268%) xususiy banklar ko‘rsatkichidan (118%) ikki barobardan ortiq - bu holat davlat banklarining kredit berish uchun asosan tashqi manbalar va muassasa ichki resurslariga tayanishini ko‘rsatadi, bozor depozitlari esa yetarlicha jalb etilmayapti.

Kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR) 2021 yil noyabrida 17.2 foiz [27], 2024 yil yakunlarida esa 17.0 foiz darajasida qayd etildi — bu Basel III minimal talabidan (10 foiz) ancha yuqori. CAR ning barqaror saqlanishi bank sektorining tezkor aktivlar kengayishiga nisbatan kapital bazasini adekvat to‘plab borayotganini ko‘rsatadi.

Likvidlik qoplama koeffitsienti (LCR) 2021 yil noyabrida 167 foiz [27], 2024 yil yakunlarida esa 194 foizga ko‘tarildi — minimal talab (100 foiz) dan deyarli ikki barobar yuqori. NSFR (uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish koeffitsienti) 2021 yildagi 113 foizdan 2024 yilda 115 foizga biroz o‘sdi. Ushbu likvidlik ko‘rsatkichlari bank tizimining qisqa va o‘rta muddatli moliyaviy shoklardan yetarli darajada himoyalanganligini anglatadi.

Quyidagi tahlil natijalari 2015–2024-yillar davomida tijorat banklarining moliyaviy samaradorligi va risk darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholash imkonini beradi hamda risk-menejment tizimining amaliy samaradorligini ochib beradi.

3-jadval.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari (2020–2024)[13]

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Kapital yetarliligi (CAR, %)	—	17.2	~19	17.3	17.0
Birinchi darajali kapital (Tier-1, %)	—	—	—	14.2*	—
Likvidlik qoplama koeff. (LCR, %)	—	167	—	~180	194
Uzoq muddatli likvidlik (NSFR, %)	—	113	—	—	115
Bank sektori sof foydasi (mln USD)	—	364	—	—	—
Davlat banklari aktiv ulushi (%)	85	81.5	78.2	67.0	67.0
Kapital o‘sish sur’ati (yillik, %)	—	—	+12	+21	~+13
Yuqori likvidli aktiv ulushi (%)	—	15	—	—	~15

Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA) ko‘rsatkichlari banklar kesimida sezilarli tafovutlarga ega bo‘lib, bu aktivlar tarkibi sifati, kredit portfeli diversifikatsiyasi va risklarni boshqarish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim banklarda (xususan, Ipak Yuli bank va Hamkorbank) ROA ko‘rsatkichining yuqori va nisbatan barqaror darajada

[13] Manba: O'zR Markaziy banki CBU Moliyaviy barqarorlik hisoboti 2024 H1 (https://cbu.uz/en/press_center/releases/1914854/); CBU Moliyaviy barqarorlik hisoboti 2024 (https://cbu.uz/uz/about/reports/); gazeta.uz (01.12.2021) (https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/01/bank-system/); Oliy Majlis yillik hisoboti tahlili, 2022 (https://lex.uz/ru/docs/-6486512).

shakllanishi aktivlardan samarali foydalanish bilan birga, kredit risklarini baholash va monitoring qilish tizimi samarali yo‘lga qo‘yilganini anglatadi.

Aksincha, Turonbank va ayrim davrlarda Agrobankda ROA ko‘rsatkichining pasayish tendensiyasi aktivlar samaradorligining sustlashuvi hamda risklarni boshqarish tizimining yetarli darajada ishlamayotganligini ko‘rsatadi.

4-jadval

Tadqiqotda obyekt sifatida tanlab olingan tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichlari


Bank	Indi Ka torlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aloqabank	ROA	1,8	1,6	1,3	1,5	1,7	2,8	1,5	1,6	3,8	1,0
	ROE	12,1	11,4	9,5	10,2	11,8	14,4	8,6	13,2	27,4	12,1
	COR	1,1	1,4	2,1	1,9	1,6	1,9	2,2	1,6	2,1	1,1
Ipak Yuli bank	ROA	2,07	2,42	2,83	4,08	3,94	3,61	5,26	3,63	4,39	4,39
	ROE	117,1	24,31	25,07	31,28	28,8	21,1	30,7	22,8	26,9	26,9
	COR	0,16	0,16	0,18	0,22	0,21	0,17	0,18	0,16	0,55	0,18
SQB bank	ROA	0,69	0,68	0,36	0,78	2,02	1,63	1,77	0,92	1,22	1,7
	ROE	7,09	7,4	3,82	8,32	11,28	11,91	12,96	7,52	10,45	11,9
	COR	0,09	0,09	0,06	0,11	0,18	0,15	0,15	0,07	0,08	0,1
Hamkor bank	ROA	3,28	3,09	2,49	2,77	3,41	3,24	3,63	4,4	5,72	4,97
	ROE	31,07	28,6	24,1	24,9	26,5	22,9	23,3	28,	31,9	27,6
	COR	0,17	0,18	0,14	0,15	0,15	0,15	0,14	0,15	0,18	0,12
Asia Alliancebank	ROA	2,5	2,2	1,8	2,0	1,2	1,3	1,3	3,1	4,0	2,8
	ROE	16,2	15,1	12,4	13,5	10,6	12,8	12,6	37,3	38,0	16,5
	COR	0,8	0,9	1,5	1,2	1,4	1,4	1,1	0,9	1,3	1,5
Turonbank	ROA	1,78	1	1,27	1,41	1,32	0,92	0,41	0,36	0,31	0,1
	ROE	12,65	4,49	4,49	7,72	9,52	5,3	2,81	3,05	2,43	1,6
	COR	0,13	0,1	0,13	0,15	0,14	0,09	0,03	0,04	0,04	0,01
Agrobank	ROA	0,34	0,36	0,05	0,04	0,92	0,82	1,01	1,15	1,13	0,09
	ROE	2,34	2,65	0,19	0,19	3,69	4,75	4,32	6,41	6,11	0,56
	COR	0,02	0,02	0	0	0,05	0,05	0,05	0,05	0,05	0,01

Kapital rentabelligi (ROE) ko‘rsatkichlari ham banklarning riskga nisbatan daromadlilik strategiyasini aks ettiradi. Xususan, Ipak Yuli bankda dastlabki davrda juda yuqori ROE darajasi kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda ushbu

ko‘rsatkichning muvozanatlashuvi kapital strukturasini optimallashtirish va risklarni cheklashga qaratilgan siyosat natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Hamkorbank va Aloqabankda ROE ko‘rsatkichining barqarorligi risk va daromadlilik o‘rtasidagi optimal nisbat ta’minlanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Turonbank va Agrobankda ROE darajasining pastligi kapitaldan foydalanish samaradorligi pastligini va ehtimol, konservativ kredit siyosati yoki operatsion samaradorlikning yetarli emasligini anglatadi.

Risk qiymati (COR) ko‘rsatkichining dinamikasi esa banklarda kredit risklari darajasini ifodalaydi. Tahlillar natijasida ayrim banklarda, xususan Ipak Yuli bankda 2023-yilda COR ko‘rsatkichining keskin oshishi kredit portfelida risklarning ortganligini va ehtimol, muammoli kreditlar ulushi ko‘payganligini ko‘rsatadi. Boshqa banklarda (Agrobank, Turonbank) COR darajasining pastligi esa bir tomondan risklarning pastligini bildirsa, ikkinchi tomondan kreditlash faolligining pastligi yoki riskdan qochish strategiyasi mavjudligini anglatishi mumkin. Shu jihatdan, COR ko‘rsatkichini past darajada ushlab turish har doim ham ijobiy holat sifatida baholanmasligi lozim, balki u bankning riskka bo‘lgan munosabati va kredit siyosati bilan uyg‘un holda tahlil qilinishi zarur.



5-rasm. Tadqiqotda obyekt sifatida tanlab olingan tijorat banklarining 2015-2024 yillarda aktivlari tarkibi (mln so‘mda)[14]

[14] Muallif hisob-kitoblari.

Tahlillar tijorat banklarida moliyaviy samaradorlik (ROA, ROE) va risk darajasi (COR) o‘rtasida muvozanat mavjudligini tasdiqlaydi. Yuqori daromadlilik ko‘rsatkichlari ko‘pincha yuqori risk bilan birga shakllanadi, bu esa risk-menejment tizimini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklarida risk-menejment tizimi nafaqat risklarni aniqlash va baholash, balki ularni monitoring qilish va minimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, banklarda risk-menejmentni takomillashtirish doirasida ilg‘or baholash modellarini joriy etish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, stress-test tizimlarini keng qo‘llash hamda risk va daromadlilik o‘rtasida optimal nisbatni ta’minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Random Effects modeli natijalari tijorat banklarida risk shakllanishida aktivlar tarkibi, likvidlik va kapital yetarliligi asosiy omillar ekanligini tasdiqlaydi. Biroq ushbu model individual effektlarni tasodifiy deb qabul qilishi sababli, banklarga xos xususiyatlarni to‘liq hisobga olmasligi mumkin.

Shu jihatdan, ushbu natijalar umumiy tendensiyalarni ko‘rsatsa-da, aniq va chuqur tahlil uchun Fixed Effects modeli testlari bilan solishtirib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5-jadval

Tijorat banklarida riskka ta’sir etuvchi omillarning Fixed Effects va Random Effects modellari testlari[15]

O‘zgaruvchi	**Fixed Effects (FE)**	**Random Effects (RE)**	**Izoh**
LnX1 (aktivlar)	0.021 (2.50)***	0.017 (2.46)**	Aktivlar ↑ → risk ↑
LnX2 (investitsiya)	0.034 (3.33)***	0.029 (3.33)***	Eng kuchli ijobiy ta’sir
LnX3 (kapital qo‘yilma)	0.018 (2.40)**	0.015 (2.45)**	Riskli aktiv
LnX4 (pul mablag‘lari)	-0.056 (-4.38)***	-0.049 (-4.67)***	Likvidlik riskni kamaytiradi
LnX5 (kapital)	-0.041 (-3.63)***	-0.036 (-3.83)***	Kapital buffer
Constant	1.284 (2.37)**	1.102 (2.50)**	Model intercept

Ushbu tadqiqotda panel ma’lumotlar asosida Fixed Effects va Random Effects modellari orqali tijorat banklarida risk shakllanish omillari baholandi. Olingan natijalarga ko‘ra, barcha omillar har ikki modelda ham bir xil yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, Fixed Effects modeli yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega ekanligi ($R^2 = 0.721$) bilan ajralib turadi. Hausman test natijalari ($p = 0.018$) banklarga xos individual xususiyatlar modelda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib, Fixed Effects modelining statistik jihatdan ustunligini tasdiqladi. Shu asosda, tijorat banklarida risk-menejment samaradorligini baholashda Fixed Effects modeli eng maqbul yondashuv sifatida tanlandi.

[15] Muallif hisob-kitoblari.

6-jadval

Tijorat banklarida riskka ta’sir etuvchi omillarning Fixed Effects va Random Effects modellari testlari[16]

Ko‘rsatkich	FE	RE	Izoh
R^2 (within)	**0.721**	0.653	FE kuchliroq
R^2 (overall)	0.698	0.662	FE ustun
F / Wald test	15.82	58.37	Har ikkala model ahamiyatli
Prob > test	0.000	0.000	Statistik ahamiyatli
rho	0.752	0.640	Individual effekt muhim

Olib borilgan ekonometrik tahlil natijalari tijorat banklarida risk qiymatining shakllanishi ko‘p omilli va murakkab jarayon ekanligini ko‘rsatdi.

Fixed Effects va Random Effects modellari natijalari o‘zaro solishtirilganda, tushuntiruvchi o‘zgaruvchilarning ta’sir yo‘nalishi har ikki modelda ham bir xil ekanligi aniqlandi, ya’ni aktivlar va investitsiyalarga bog‘liq ko‘rsatkichlar riskni oshiruvchi omillar sifatida, likvidlik va kapital esa riskni kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, uzoq muddatli investitsiyalar va kapital qo‘yilmalarning musbat ta’siri banklarda nolikvid va yuqori riskli aktivlar ulushi oshishi bilan izohlansa, pul mablag‘lari va kapitalning manfiy ta’siri risklarni yutish va likvidlikni ta’minlash funksiyasi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish»** deb nomlanib, unda O‘zbekiston tijorat banklarida komplayens tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Bobda tijorat banklarida komplayens tizimini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, uning samaradorligini baholash mezonlari va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, “Asia Alliance Bank” ATB va AT “Aloqabank” misolida bankning moliyaviy xavfsizligini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan omillar aniqlanib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Risklarni boshqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, komplayens-monitoring tizimlarini avtomatlashtirish, xodimlarning komplayens madaniyatini rivojlantirish hamda ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini ta’minlash istiqbollari, xalqaro standartlar asosida komplayens va risk-menejment tizimlarini uyg‘unlashtirish yo‘nalishlari hamda banklar faoliyatining barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik takliflar ishlab chiqilgan. Natijada tijorat banklarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi komplayens-nazorat tizimini takomillashtirishning kompleks mexanizmi taklif etilgan.

[16] Muallif hisob-kitoblari.

Taklif etilayotgan baholash modelida har bir mezon bo‘yicha risk darajasi ikki tarkibiy qism orqali aniqlanadi: P_i — komplayens buzilishi yuzaga kelish ehtimoli va F_i — ushbu buzilishning moliyaviy ta’siri. Har bir mezon 0 dan 1 gacha normallashtiriladi, bunda 0 — risk mavjud emas yoki juda past, 1 — riskning eng yuqori darajasini bildiradi. Umumiy KR integral indeksi quyidagi ko‘rinishda aniqlanishi mumkin:

$$KR = \Sigma\, w_i \times R_i$$

bu yerda w_i — i-mezonning og‘irlik koeffitsiyenti, R_i — i-mezon bo‘yicha risk balli. R_i quyidagicha hisoblanadi:

$$R_i = \sqrt{(P_i \times F_i)}$$

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, ehtimollik yuqori bo‘lsa-yu, moliyaviy ta’sir past bo‘lsa yoki aksincha, baholash haddan tashqari oshirib yuborilmaydi; aksincha, har ikkala omil birgalikda yuqori bo‘lganda KR indeksi keskin ortadi.

Mazkur tadqiqotda *KR* indeksini 0 dan 1 gacha normallashtirilgan oraliqda baholash taklif etilib, $0 \le KR < 0{,}30$ — “past”, $0{,}30 \le KR < 0{,}60$ — “o‘rtacha”, $0{,}60 \le KR < 0{,}80$ — “yuqori”, $0{,}80 \le KR \le 1{,}00$ — “juda yuqori” darajalar ajratildi. Ushbu intervallar shkalasining ilmiy asosi shundan iboratki, 0–1 oralig‘i riskni standartlashtirilgan integral baholash imkonini beradi, 0,30 va 0,60 chegaralari bankda profilaktik va kuchaytirilgan nazorat choralarini farqlashga xizmat qiladi, 0,80 chegarasi esa komplayens buzilishlarining moliyaviy ta’siri keskin ortadigan kritik zona sifatida belgilanadi.


7-jadval

Tijorat banklarida komplayens-risklarni baholash shkalasi[17]

KR oralig‘i	Risk darajasi	Ilmiy-amaliy talqin	Tavsiya etiladigan boshqaruv chorasi
0 ≤ KR < 0,30	Past	Komplayens tizimi barqaror, buzilish ehtimoli va moliyaviy ta’sir past	Rejali monitoring va profilaktik nazorat
0,30 ≤ KR < 0,60	O‘rtacha	Alohida jarayonlarda zaifliklar mavjud, biroq tizimli xavf shakllanmagan	KYC/AML tekshiruvlarini kuchaytirish, ichki treninglar
0,60 ≤ KR < 0,80	Yuqori	Komplayens buzilishlari bank moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin	Ichki audit, regulyator risklarini qayta baholash, zudlik bilan tuzatish choralari
0,80 ≤ KR ≤ 1,00	Juda yuqori	Tizimli komplayens buzilishlari, jarima, sanksiya va reputatsion zarar xavfi yuqori	Maxsus komplayens-reja, boshqaruv kengashi darajasida nazorat, operatsiyalarni cheklash yoki qayta ko‘rib chiqish

“Know your customer” siyosatining maqsadlari uchta asosiy bosqichda ifodalanadi: oldini olish, aniqlash va hisobot berish, ular 6-rasmda ko‘rsatilgan.

[17] Muallif ishlanmasi.



6-rasm. “Know your customer” siyosatining maqsadlari[18]

Pul mablag‘lari va (yoki) boshqa mulklar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish hamda shubhali operatsiyalarni to‘xtatib turish choralari ko‘riladi.


1-bosqich - “Oldini olish” quyidagi qadamlardan iborat: mijozni identifikatsiya qilish, “Know your customer” siyosatini amalga oshirish, kengaytirilgan tegishli tekshirish o‘tkazish va xatarni baholash.

2-bosqich - “Aniqlash” quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mijoz tranzaksiyalarini monitoring qilish, mijoz xatti-harakatlarini tavsiflash va davriy ko‘rib chiqish.

3-bosqich - “Hisobot berish” esa shubhali operatsiyalar haqida xabarnoma yuborish, rahbariyatni xabardor qilish, xatarlarni tahlil qilish hamda operatsiyalarni to‘xtatib turishni o‘z ichiga oladi.

Bankning “Know your customer” siyosati, shuningdek jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi siyosatlari hamda ushbu yo‘nalishlarda amal qilinadigan ichki nazorat qoidalarini ko‘rib chiqish natijasida, tijorat banklarida jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy mexanizm ishlab chiqilishi zarur (7-rasmda ko‘rsatilgan). Daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi choralar banklar uchun ko‘p funksiyali ahamiyat kasb etib, mijozlarni identifikatsiya qilish va tekshirish jarayonida tizimli ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa kelajakdagi xatarlarni prognozlash, shubhali operatsiyalarni aniqlash, moliyaviy monitoring yo‘nalishlarini belgilash hamda tegishli ma’lumotlarni saqlash orqali komplayens tizimini uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiladi.

[18] Muallif ishlanmasi.



7-rasm. Daromadlarni legallashtirishga qarshi chora-tadbirlar mexanizmi[19]

Dissertatsiyada ARIMA modeli asosida “Aloqabank”ning risk koeffitsiyentining 2030-yilga qadar prognozi ishlab chiqilgan. ARIMA modellari ichidan AIC/BIC mezonlari bo‘yicha eng maqbul model: ARIMA(0,0,1)
Model ko‘rinishi:

$$Yt=0,1408+\varepsilon_t+0,5838\varepsilon_{t-1}$$

Diagnostika natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

ADF testi bo‘yicha qator to‘liq statsionar deb qat’iy tasdiqlanmaydi, lekin kuzatuvlar soni kamroq bo‘lganligi sababli AIC/BIC mezonlari va qoldiqlar diagnostikasiga tayangan holda ARIMA(0,0,1) modeli tanlandi. Ljung–Box p-value 0,704 bo‘lgani uchun qoldiqlarda jiddiy avtokorrelyatsiya aniqlanmadi.

8-jadval

“Aloqabank”ning risk koeffitsiyenti bo‘yicha 2030-yilgacha prognoz modelining test natijalari [20]

Ko‘rsatkich	Natija
Tanlangan model	ARIMA(0,0,1)
AIC	-38,911
BIC	-37,718
Ljung–Box p-value	0,704
O‘rtacha uzoq muddatli qiymat	0,1408
ADF p-value	0,216

ARIMA(0,0,1) modeli natijalariga ko‘ra, risk qiymati (COR) 2026 yilda qisqa muddatli inersiya ta’sirida 0,1449 darajasiga yetishi mumkin. Keyingi yillarda esa

[19] Muallif ishlanmasi.
[20] Muallif ishlanmasi.

ko‘rsatkich uzoq muddatli o‘rtacha qiymat — 0,1408 atrofida barqarorlashadi. Bu shuni anglatadiki, 2027–2030 yillarda risk darajasida keskin o‘sish yoki pasayish emas, balki o‘rtacha barqarorlashuv tendensiyasi kutiladi.

9-jadval

“Aloqabank”ning risk koeffitsiyentining 2030-yilgacha prognoz natijalari [21]

Yil	ARIMA prognoz, koeffitsiyent
2026	0,1449
2027	0,1408
2028	0,1408
2029	0,1408
2030	0,1408

Agar ushbu ko‘rsatkich komplayens-risk yoki operatsion risk indikatori sifatida talqin qilinsa, 2030 yilgacha risk qiymati taxminan 0,14 darajasida saqlanadi. Bu 0–1 integral shkala bo‘yicha baholanganda past risk zonasiga mos keladi, chunki qiymat 0,30 dan past**.** Biroq 95% ishonch oralig‘i nisbatan keng bo‘lgani sababli prognoz ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim. Buning asosiy sababi kuzatuvlar sonining kamligi va 2020–2023 yillarda risk qiymatining sezilarli tebranganidir.

O‘tkazilgan ARIMA prognoz natijalari tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. 2015–2025 yillar bo‘yicha risk qiymati (COR) dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur ko‘rsatkich ayrim yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, 2022–2024 yillarda qayta o‘sish va tebranish holatlari kuzatilgan. ARIMA(0,0,1) modeli asosida 2026–2030 yillar uchun hisoblangan prognozga ko‘ra, COR ko‘rsatkichi 2026 yilda 0,1449 darajasida shakllanishi, 2027–2030 yillarda esa 0,1408 atrofida barqarorlashishi kutilmoqda. Ushbu natija risk qiymatining 0,30 dan past oraliqda saqlanishini ko‘rsatadi va taklif etilgan KR shkalasi bo‘yicha “past risk” darajasiga mos keladi.

XULOSA

“Tijorat banklarida risklarni boshqarishda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi hamda ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

1. “Tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi” tushunchasi bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari, regulyator talablari, xalqaro standartlar, ichki

[21] Muallif ishlanmasi.

me’yoriy hujjatlar va korporativ etika qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda minimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ichki nazorat va risklarni boshqarish mexanizmidir.

2. Komplayens-nazorat tizimi tijorat banklarida faqat qonunchilik talablariga rioya etishni ta’minlovchi ichki nazorat vositasi emas, balki risklarni erta aniqlash, ularning oldini olish, bank obro‘sini himoya qilish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv funksiyasi sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Risk-menejment va komplayens-nazorat tizimlari o‘rtasidagi institutsional bog‘liqlik bank faoliyatida risklarni samarali boshqarishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Xususan, KYC, CDD, KYB, AML/CFT, sanksion monitoring, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, benefisiar mulkdorlikni tekshirish va tranzaksion monitoring jarayonlarini yagona axborot-risk platformasida birlashtirish komplayens risklarini kamaytirish imkonini beradi.

4. O‘zbekiston tijorat banklari rivojlanish dinamikasi tahlili bank tizimida aktivlar, kredit portfeli, depozitlar va masofaviy bank xizmatlari hajmi ortib borayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bank faoliyatining kengayishi moliyaviy risklar, muammoli kreditlar, operatsion xavflar, raqamli firibgarlik va komplayens talablariga rioya qilmaslik xavflarining kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

5. Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligi va risk darajasini baholash natijalari banklarning daromadlilik ko‘rsatkichlari, aktivlar sifati, kapital yetarliligi va likvidlik holati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Muammoli kreditlar ulushining oshishi, kredit portfeli sifatining pasayishi va ichki nazoratdagi zaifliklar banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

6. Tijorat banklarida moliyaviy risklarga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish orqali banklarning moliyaviy natijalari va risk darajasiga kredit portfeli hajmi, muammoli kreditlar ulushi, raqamli bank xizmatlari rivoji, operatsion xarajatlar, kapital yetarliligi va makroiqtisodiy omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatishi asoslandi. Bu esa risklarni baholashda statistik va ekonometrik modellarni muntazam qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

7. Tijorat banklarida komplayens-risklarni baholash usuli takomillashtirilib, unda komplayens buzilishlari ehtimoli va ularning moliyaviy ta’sirini integral indeks asosida aniqlashning $0 \le KR < 0{,}30$ – “past”, $0{,}30 \le KR < 0{,}60$ – “o‘rtacha”, $0{,}60 \le KR < 0{,}80$ – “yuqori” hamda $0{,}80 \le KR \le 1{,}00$ – “juda yuqori” darajalari asosida takomillashtirish chegaralarini baholash taklif etildi.

8. “Asia Alliance Bank” ATB va AT “Aloqabank” misolida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, moliyaviy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida kredit risklari, operatsion risklar, normativ talablar ijrosidagi kamchiliklar va ichki nazorat jarayonlaridagi ayrim nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

9. Tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida real vaqt rejimidagi tranzaksion monitoring, sun’iy

intellekt va big data asosida risk-profillash, avtomatlashtirilgan AML/CFT nazorati, sanksion skrining, masofaviy identifikatsiya va “uch himoya chizig‘i” modelini amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi. Tijorat banklarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi komplayens-nazorat tizimini integrallashgan boshqaruv mexanizmi asosida tashkil etish takomillashtirilib, unda AML/CFT, “Know Your Customer” (KYC), sanksion monitoring va operatsion risk indikatorlarini yagona raqamli platforma orqali nazorat qilih qilish taklif etilgan..

10. Tadqiqotda O‘zbekiston tijorat banklari rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz ssenariylarini ishlab chiqish bank tizimining uzoq muddatli barqarorligini baholash, moliyaviy risklarning ehtimoliy o‘zgarishini aniqlash va komplayens-nazorat tizimini strategik rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash imkonini berishi asoslandi. Prognoz ssenariylari banklarda moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash, risklarni oldindan baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot yakunida tijorat banklarida risklarni boshqarish va komplayens-nazorat tizimini uyg‘unlashtirishga asoslangan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif qilindi. Mazkur mexanizmni amaliyotga joriy etish banklarning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish, investorlar va mijozlar ishonchini oshirish hamda bank tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/2025.27.12.I.23.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ФАЙЗИЕВ ШЕРЗОД ДЖУНАЙДИЛЛОЕВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктор философии (PhD) по экономическом наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2026.1.PhD/Iqt6498.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Образовательном портале ZiyoNET (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Турсунов Бобир Ортикмирзаевич** доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Исмоилов Алишер Агзамович** доктор экономических наук, доцент
	Рахматов Хасан Уткирович доктор экономических наук, доцент
Ведущая организация:	**Университет Алфраганус**

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета Ташкентского государственного экономического университета, DSc.03/2025.27.12.I.23.01, «____»_____ 2026 г. в _____. (Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер _____). (Адрес: 100003, Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49, тел.: (99871) 239-28-72; 239-01-49. Факс: (99871) 239-43-51, эл. почта: tdiu@tdiu.uz)

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года.
(протокол реестра № _____ от «___» _____ 2026 года).

С.У. Мехмонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

С.К. Худойкулов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Глобализация финансовых рынков по всему миру, переход банковских услуг на цифровые платформы, ускорение трансграничного движения капитала и усиление геополитической нестабильности создают необходимость коренного совершенствования системы управления рисками в коммерческих банках. Согласно прогнозам Международного валютного фонда, глобальный экономический рост составит около 3,1% в 2026 году и 3,2% в 2027 году, в то время как война на Ближнем Востоке, геополитическая фрагментация, торговые конфликты[1], инфляционное давление и неопределенность на финансовых рынках негативно влияют на глобальную финансовую стабильность. В таких условиях возрастает потребность в комплексном управлении рисками в сфере комплаенса, санкций, репутационных рисков, кибербезопасности и операционной деятельности коммерческих банков. Таким образом, система комплаенс-контроля становится стратегическим инструментом управления, обеспечивающим соответствие банков законодательным требованиям и укрепляющим их финансовую стабильность, репутацию и цифровую безопасность.

Растущая во всем мире распространенность отмывания денег, финансирования терроризма, коррупции, уклонения от санкций и мошенничества делает систему комплаенс-контроля центральным элементом управления рисками в банке. В международных стандартах комплаенс-функция признается неотъемлемой частью системы управления рисками банка. Согласно подходу Базельского комитета, комплаенс-риск — это риск юридических санкций, финансовых потерь или ущерба репутации, возникающий в результате несоблюдения банком законов, нормативных требований, внутренних правил, этических кодексов и стандартов надлежащей практики. В этом отношении система комплаенс-контроля должна иметь независимый статус в банках, быть институционально отделена от бизнес-подразделений, иметь право на получение обширной информации, регулярный мониторинг, проверку на соответствие, координацию с внутренним аудитом и прямую отчетность перед наблюдательным советом. В противном случае комплаенс-функция останется на уровне формально-бюрократической инспекции и не сможет в полной мере выполнять свою задачу раннего выявления, предотвращения и смягчения банковских рисков.

Вопрос совершенствования системы комплаенс-контроля в банковской системе Узбекистана также имеет неотложное значение. Хотя оценки, проведенные в рамках FATF и EAG, показали, что система противодействия отмыванию денег и финансированию терроризма в Узбекистане приводится в соответствие с международными стандартами и наблюдается прогресс в устранении некоторых технических недостатков, остается необходимость повышения прозрачности финансовых операций, усиления надзора за банками и финтех-компаниями, внедрения управления рисками и повышения эффективности выявления подозрительных транзакций. В частности, переход

[1] IMF, 2026-yil aprel oyida e’lon qilingan (WEO) hisoboti bo’yicha global o‘sish va xavflar prognozi.

банковских услуг на цифровые каналы, расширение использования дистанционной идентификации, мгновенных платежей, онлайн-кредитования и электронных кошельков создают новые формы рисков для банков в сфере комплаенса.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, определённых в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-5729 от 27 мая 2019 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030»», постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 1013 от 14 декабря 2018 года «О мерах по радикальному совершенствованию системы финансового оздоровления предприятий с государственным участием», № 207 от 28 июля 2015 года «О внедрении критериев оценки эффективности деятельности акционерных обществ и иных хозяйствующих субъектов с государственным участием» и других нормативно-правовых актах в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование проводилось в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы управления рисками, банковского надзора, внутреннего контроля и совершенствования системы комплаенс-контроля в коммерческих банках широко изучались зарубежными экономистами и международными финансовыми институтами. Теоретические основы банковских рисков рассматриваются в работах таких ученых, как Ф. Найт, П. Бернштейн, Дж. Бессис, Дж. Халл, П. Жорион, М. Круи, Д. Галаи, Р. Марк, А. Дамодаран, Дж. Лам[2], в которых научно обоснованы риски, неопределенность, кредитный риск, рыночный риск, риск ликвидности, операционный риск и механизмы управления корпоративными рисками. Вопросы банковского капитала, финансовой стабильности и риск-ориентированного контроля анализируются в исследованиях А. Бергера, Г. Уделла, К. Боумана, А. Демиргуч-Кунта, Х. Хёйзинги, Р. ДеЯнга, К. Роланда, Х. Ван Грёнинга и С. Брайовича[3] Братановича[2] в связи с эффективностью

[2] Knight, F.H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Boston: Houghton Mifflin;Bernstein, P.L. (1998). Against the Gods: The Remarkable Story of Risk. New York: John Wiley & Sons;Bessis, J. (2015). Risk Management in Banking. 4th Edition. Wiley;Hull, J.C. (2018). Risk Management and Financial Institutions. 5th Edition. Hoboken: Wiley;Jorion, P. (2007). Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. 3rd Edition. McGraw-Hill;Crouhy, M., Galai, D., & Mark, R. (2014). The Essentials of Risk Management. 2nd Edition. New York: McGraw-Hill;Damodaran, A. (2008). Strategic Risk Taking: A Framework for Risk Management. Wharton School Publishing;Lam, J. (2014). Enterprise Risk Management: From Incentives to Controls. Hoboken: John Wiley & Sons;http://dx.doi.org/10.1002/9781118836477

